

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

**3-son**  
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

X <sub>T</sub>	TAHRIRIYAT
	<b>TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI</b>
F. Kuchkarova	Talabalarni sanogen tafakkurini rivojlantirish omillari
M. Xasanova	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni rivojlantirish
N. Turdiyev	Bo'lajak o'qituvchilarda daxldorlik hissini shakllantirish
J. Xamidov	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida innovatsion klaster yondashuvi asosida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish
N. Valiyeva	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari
	<b>TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI</b>
X. Orzikulov	Talabalarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Pedagogika fanini o'qitish misolida)
A. Qosimov	Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari va uning xususiy metodikadan farqi
M. Boratova, O. Ishboeva	Biologiyani o'qitishda modulli ta'limgan texnologiyalari va zamnaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning uzvigligi va uyg'unligi
	<b>TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT</b>
N. Temirov	Oliy ta'limgan sifatini baholashning xorijiy modellari va o'zbekistonda oliy ta'limgan tizimidagi islohotlar tahlili
	<b>ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>
N. Abdunazarova	Maktabgacha ta'limganda zamonaviy yondashuv va ta'limgan tarbiyaning asosiy prinsiplari
D. Pulatova	Oliy ta'limganda aralash ta'limgi tashkil etish tendensiyalari
D. Farsaxonova	Oliy ta'limganda interfaol ta'limgan texnologiyalaridan foydalanish
	<b>MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>
B. Narzullaeva	Mahallalarda millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish
S. S. Meliboyeva	Milliy hunarmandchilik – voyaga yetayotgan qizlarni ijtimoiy-ylashtirish omili sifatida
B. Xusanov	Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlash metodikasi
	<b>TA'LIMDA MENEJMENT</b>
N. Abdullaeva	Maktabgacha ta'limganda menejment, zamonaviy yondashuv va samarali shakllar
Z. Mahmudova	Maktabgacha ta'limgan tashkilotida pedagogik jarayonlarni maqsadli boshqarishning dolzarb vazifalari
	<b>TA'LIMDA MARKETING</b>
Sh.Y. Yusupova	Moliyaviy savodxonlikni shakllantirish pedagogik muammo sifatida: pisa tadqiqoti tahlillari

	<b>JISMONIY TARBIYA VA SPORT</b>
M. Sermatov	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining faoliyat kompetentligini shakkantirish metodikasi (Futbol texnikasi misolida)
A. Jumayev	Gimnastika darslarida shikastlanish sabablari va uni oldini olish
R. Mamatqulov	Pedagogika oliy ta'lif muassasalarida bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini klaster metodi vositasida rivojlantirish
Sh. Boltayev	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatlarida innovatsion klaster metodini qo'llash samaradorligi (Voleybol sport turi misolida)
	<b>PSIXOLOGIYA</b>
F. Usmanova	Oliy ta'lif muassasalari talabalarining madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari
	<b>TA'LIMDA MUTOLAA MADANIYATI</b>
D. Muminova	Kitob va kitobxonlik – inson ma'naviyati ko'zgusi
	<b>MUSIQA VA SAN'AT TA'LIM</b>
A. Rahimov	Maktab yoshidagi bolalarda tasviriy san'atning savodxonlik elementlarini takomillashtirish
D. Amanova	Bolalarni musiqa cholg'ularini chalishga o'rgatish faoliyatining ilk qadamlari
Sh. Bekmuratova	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy metodik tayyorgarligini tuzilmasi va mohiyati
	<b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>
G. Nazirova	Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarida inklyuziv kompetensiyanı takomillashtirish
M.M. Rizayeva	Maktabgacha ta'lif tashkilotlari sharoitlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish
D. Asqarova	Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarida kreativlikni rivojlantirish aspektlari
	<b>ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR</b>
N. Fayzullaeva	Ta'lifni raqamlashtirish kontekstida universitet o'qituvchisining pedagogik faoliyatidagi o'zgarishlar
	<b>СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ</b>
A. Abdurahmanova	Компетентностные основы проектного подхода в становлении специалистов

Maxsud SHERMATOV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

“Jismoniy madaniyat nazariyasi” kafedrasи katta o'qituvchisi

## BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING FAOLIYAT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (Futbol texnikasi misolida)

### Annotation

Jismoniy tarbiya va sport sohasida ishlaydigan bo'lajak mutaxassislarining faoliyat kompetensiyasini shakllantirish omillari ta'lim mazmuni, zamonaviy axborot texnologiyalar, innovatsion yondashuvlarning ma'lum komponentlari bilan asoslangan.

**Kalit so'zlar.** Jismoniy tarbiya, faoliyat, kompetensiya, texnologiya, innovatsion, komponent, simulyatsiya o'yinlarini modellashtirish.

Факторы формирования компетентности деятельности будущих специалистов, работающих в области физической культуры и спорта, базируются на содержании образования, современных информационных технологиях, определенных компонентах инновационных подходов.

**Ключевые слова.** Физкультура, деятельность, компетенция, технологии, инновации, компонент, моделирование игр-симуляторов.

The factors of competence formation of future specialists working in the field of physical culture and sports are based on the content of education, modern information technologies, certain components of innovative approaches.

**Key words.** Physical culture, activity, competence, technologies, innovations, component, simulation of simulation games.

**J**ismoniy tarbiya va sport sohasida ishlaydigan bo'lajak mutaxassislarining faoliyat kompetensiyasini shakllantirish omillari ta'lim mazmuni, zamonaviy axborot texnologiyalar, innovatsion yondashuvlarning ma'lum komponentlari bilan asoslanib, ular quyidagi shaxsiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

– kasbiy faoliyat bilan bog'liq o'quv jarayonida qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari, interfaol va simulyatsion o'yin, loyihalash usuli va didaktik vazifalar muvofiqligi;

– sohaga oid axborot uzatish, jamoaviy faoliyatda birlikni saqlash, muvaffaqiyat sari o'zaro ta'sir qobiliyatini rivojlantirish hamda hamkorlik motivatsiyasini qaror toptirish;

– faol bilim olish qobiliyatini rivojlantirish, o'zlashtirgan bilimlarni amaliyotda mustaqil qo'llash va global axborot makonida kasbiy ma'lumotlarni klassifikatsiyalashda kognitiv yo'naltirilgan texnologiya va usullardan foydalanish.

Ushbu komponentlarni o'zida mujassamlashtirgan o'quv jarayon, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, kasbiy motivatsion treninglar, simulyatsiya o'yinlarini modellashtirish, individual va guruhda ishlashga muvofiqlashgan innovatsion yondashuvlarni yuzaga chiqarib, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilar kasbiy faoliyat kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu ayni paytda bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining yuqori kasbiy darajada tayyorlash, o'qi-

---

tish, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muammolarini ijodiy nuqtai nazaridan hal etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni tadqiq etishni talab qiladi.

Bu borada O.P. Panfilov ilmiy mulohazalariga e'tibor qaratsak, mavjud an'ana-vaiy ta'lif asosan o'quv dasturidagi fanlarni o'zlashtirish va bilimlarini takrorlashga qaratilgan bo'lib, zamonaviy sharoitda ta'lif tizimini barcha yo'nalishda sintez qilishga ehtiyoj sezmoqda<sup>1</sup>. Bu jarayon jismoniy tarbiya va sport sohasida ijodiy salohiyatni rivojlantirish mexanizmlarini yaratish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy faoliyat kompetentligini shakllantirishda ta'lif beruvchining kreativ yondashuv muammosini bartaraf etish lozimligini namoyon etmoqda.

Bizningcha, jismoniy tarbiya va sprot sohasidagi pedagogik innovatsion faoliyat, ta'lif klasteri sharoitida aralash ta'lifni samarali qo'llash, sohaga doir yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, amaliyatga joriy etishdagi yondashuv bo'lib, zamonaviy va nosandart usul hamda vositalarni ta'lif tizimiga olib kirishdir. Bunda asosan, jarayonning reproduktiv va evristik jihatlari, ta'lif mazmunini yangilash va to'ldirish hamda ta'lifni aniq maqsad sari yo'nalganligini ta'minlash bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotchilar Ye.G. Saykina, N.V. Rojdestvenskaya va A.V. Tolshin nuqtai naza-richa, jismoniy tarbiya sohasida pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash metodologiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'lif jarayonida turli xil ijodiy usullarni qo'lash orqali talabalarning kasbiy pedagogik mahoratini oshiradi hamda ular shaxsida kreativlikni shakllantiradi.<sup>2</sup>

S.V. Gippius ta'biri bilan aytganda, o'qitish – ongli, maqsadli va uslubiy jihatdan anglangan arxitekturaviy jarayon bo'lib, ta'lif oluvchining individual imkoniyatini oshish, ijodiy faoliyatga yo'naltirish va o'qib-izlanib o'rganish fazilatlarini rivojlantiradi.<sup>3</sup> Shunday qilib, innovatsion ta'lifni to'g'ri tashkil etish mavjud psixologik va fiziologik imkoniyatlarni to'g'ri baholashga, har qanday vaziyatda aniq harakat qilishga, masala mohiyatini kreativ yondashishga yo'naltirgan holda kasbiy va shaxsiy psixologik to'siq-larni bartaraf etish kompetensiyasini shakllantiradi.

Muvofiqlashtirilgan innovatsion o'qitishda shaxs o'zini o'zi rivojlantiruvchi va motivatsion usullar keng qo'llanilib, faoliyatga nisbatan individual ijodiy ishslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yondashuv, talabalarni o'qish va o'zlashtirishga nisbatan ichki regul-yatsion motivini yuzaga chiqarib, faoliyatini samaradorlik omillari bilan rag'batlantirish malakasini rivojlantiradi. Bu malaka bo'lajak mutaxassislarning ijodiy fazilatları, shaxs-ga xos xususiyati bo'lib, chuqur tasavvur, realizmga yaqin fantaziya, yangi g'oyalar, tashabbuskorlik bilan izohlanadi. Shaxsnı rivojlantirishning innovatsion ta'lif dasturi:

- dars va darsdan tashqari tashkil etiladigan munozarali va amaliy usullar (topshiriq va vazifalarni bajarishda amaliy faoliyat turiga e'tibor qaratish, natijalarni oldindan tahlil etish ko'nikmasini shakllantirish);

- kundalik turmush-tarzidagi faoliyat va iroda kuchini talab etmasdan namoyon etiladigan didaktik usullar (shaxsga xos xulq-atvomi o'rganish, kommunikativ muloqot na-tijalari, hamda kasbiy imkoniyatlarini bilish, yondashuv kreativligi va ularni rivojlantirish);

<sup>1</sup> Теоретико-методологические аспекты проектирования инновационных технологий в подготовке специалиста по физической культуре / О.П. Панфилов [и др.] // Культура физическая и здоровье. 2012. № 4(40). С. 36–39.

<sup>2</sup> Сайкина Е.Г. Фитнес в системе дошкольного и школьного физкультурного образования: дис. ...канд. пед. наук. СПб, 2009; Рождественская Н.В., Толшин А.В. Креативность: пути развития и тренинги. СПб.: Речь, 2006. 320 с.

<sup>3</sup> Гиппиус С.В. Тренинг развития креативности. Гимнастика чувств. СПб.: Речь, 2001. 346 с.

– o'qitishni tashkil etishda shaxsda mayjud bo'lgan simpatik va impatik xususiyatni rivojlantirish usuli, shaxs o'zi va o'zgalarda yuz berayotgan psixologik va fiziologik o'zgarishlar diagnostiksi va korreksion yondashuv ekspressevligini qaror toptirish kabilarni qamrab oladi.

Ta'kidlash lozimki, innovatsion amaliy yondashuv bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy faoliyat kompetensiyasini shakllantirish, tanqidiy va analitik fikrlash jarayonida kreativlikni qaror toptirish, mustaqil izlanish ko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, global axborot makonida faoliyatni to'g'ri tashkil etish hamda shaxsiy va kasbiy faoliyatiga tahdid soluvchi yot g'oyalardan himoyalanish immunitetini rivojlantiradi. Nazariy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, yuqorida bildirilgan innovatsion yondashuvlar haqidagi ilmiy mulohazalar, ularning tarkibiy komponentlari hamda amalga oshirish vosita va mexanizmlari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchi va sportchilarini kasbiy faoliyat kompetensiyasini shakllantirishda pedagogik va psixologik jihatdan muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Quyida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga (murabbiylarga) futbol texnikasi bo'yicha nazariy dars mashg'ulotlari uchun ma'lumotlarni taklif qilamiz.

**Harakatlanish texnikasi (futbol).** Ushbu usul "Futbol" fanidan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga futbolda harakatlanish texnikasini oshirishda trenir tomonidan berilishi lozim bo'lgan nazariy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Futbolda harakatlanish texnikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: yugurish, sakrash, to'xtash, buriish.

**Nazariy ma'lumot.** O'yin vaqtida harakatlanish texnikasi uslublaridan xilma-xil tarzda qo'shib foydalilanadi. Yugurishning uslublarini sakrash, to'xtash, buriish bilan birga qo'shib olib borish futbolchi harakatlanishiga xos xususiyat hisoblanadi. Harakatlanish texnikasining uslublari maydon o'yinchilari va darvozabonning to'pni boshqarish san'ati bilan chambarchas bog'liq. Harakatlanish texnikasi uslublarini keragicha hamda kompleks tarzda qo'llanishi ko'p taktik vazifalarni (to'p olish uchun ochilish va raqibini chalg'itish, pozitsiya tanlash, o'yinchini to'sib olish va hok,) samarali hal qilish imkonini beradi.

**Yugurish texnikasi.** Yugurish futboldagi asosiy harakatlanish vositasidir. To'pni boshqarayotgan futbolchilar yugurish yordamida maydonda turlicha joylashib oladilar. Bundan tashqari yugurish tarkibiy qism sifatida to'pni boshqarish texnikasiga ham kiradi.

Futbolda yugurishning quyidagi uslublari qo'llaniladi: oddiy yugurish, tisarilib yugurish, chalishtirma qadam tashlab yugurish, juftlama qadam tashlab yugurish. Oddiy yugurishdan asosan to'g'riga borayotgan o'yinchilar bo'sh joyga chiqish, raqibni quvish va hokazolarda foydalananadi. Harakat tizimi ham, tuzilishi ham yengil atletika yugurishidan farq qilmagani uchun uni oddiy yugurish deyiladi. Qadam uzunligi, chastotasi va ritmidagini farqi bor xolos.

Tisarilib yugurishdan asosan to'pni olib qo'yishda va to'sib olishda qatnashayotgan himoyadagi o'yinchilar foydalananilar. Yugurishning bu turi ham siklik (qo'shaloq qadamli) bo'ladi. Qisqa-qisqa, lekin tez-tez qadam tashlash, havoda uchish fazasining qariyb yo'qligi unga xos xususiyatdir. Buning sababi sultanish oyog'i orqaga uzatilganda sonning yozilishi cheklangan yekanidadir. O'yin sharoiti ko'pincha maksimal tezlikda tisarilib yugurishni talab qilib qoladi. Bunda tezlik qadam chastotasini oshirish hisobiga ortadigan bo'lib, bu ko'proq oyoqning orqaga faol harakat qilishiga bog'liq.

Chalishtirma qadam tashlab yugurish yon tomonga bajariladigan yugurish qadamlari bilan xarakterlanadi. Qadam tashlash siklining birida sultanuvchi oyoqni tayan-

---

ch oyoqning oldiga chalishdirib o'tkaziladi. Yugurish paytda havoda uchish fazasi juda qisqa.

Juftlama qadam tashlab yugurishdan taktik jihatdan kerakli holatga o'tishda (masalan, o'yinchi oldini to'sib olishda) foydalaniladi.

U dastlab harakatlanish fazasi sifatida foydalaniladi, keyinroq o'yindagi vaziyatga qarab, harakatlanish texnikasining turli uslublari sifatida ijro etiladi.

**Sakrash texnikasi.** Sakrashning ikki xil uslubi mavjud: bir oyoqdadepsinib sakrash va ikki oyoqda depsinib sakrash.

Sakrab to'pga bosh urayotganda ko'pincha maksimal baland ko'tarilish kerak bo'ladi. Bunda yugurib kelib depsinadigan oyoqni taqqa to'xtaydigan qilib (tayanchga nisbatan burchak hosil qilib) qo'yish yordam beradi.

Ikki oyoqda depsinib sakrash – bunday usul bilan oldinga, oldinlab yon tomonga va oraliq yo'nalishlarida sakraladi.

**To'xtash texnikasi.** To'xtashda ikki xil uslub vositasi qo'llaniladi: sakrab to'xtash va tashlanib to'xtash.

Sakrab to'xtash uchun sal yuqoriga qisqaroq sakrab, siltangan oyoqda yerga tushiladi – bunda turg'unlik bo'lishi uchun shu oyoq sal egiladi. Ammo ko'pincha yerga ikki oyoqlab tushiladi.

Tashlanib to'xtash so'nggi yugurish qadami hisobiga bajariladi. Bunda siltangan oyoqni oldinga uzatib, tovonga tiralinadi-da, keyin oyoqni rostmana yerga qo'yiladi. Tashlanib to'xtash oyoqlarni anchagini bukib, ikki oyoqqa tayanib qolish bilan xarakterlanadi.

Barcha xil to'xtashlardan keyin, odatda, turli yo'nalishlarda harakat davom ettiriladi. Shuning uchun to'xtashdagи so'nggi holati harakatning start holati bo'lishi kerak.

**Burilish texnikasi.** Burilish yordamida futbolchilar tezlikni minimal kamaytirib, yugurish yo'nalishini o'zgartiradilar. Odatda turgan joyda burilgandan keyin start harakatlari boshlanadi. Burilish, shuningdek, zarba berish, to'pni to'xtatish, to'pni olib yurish va fintlarning ayrim usullarini bajarish texnikasi tarkibiga ham kiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shermatov M.N. Aspects of Practical Application of Professional Skills of Future Physical Education Teachers (Pedagogical Opportunities and Factors). Pindus journal of Culture (Spain). ISSN 2792-1883 (online), Published in Vol: 2 No: 6 for the month of Jun-2022

2. Shermatov M.N. Theory" and Methodology of Mixed Education in the Context of an Educational Cluster. "Academic Journal of digital economics and stability" (Spain). ISSN: 2697-2212 2022 May

3. Shermatov M.N. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarni tarbiyalashda innovation yondoshuvlar. Xalq ta'limi. –T., 2020. №3 B 78-83

4. Shermatov M.N. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovasion yondashuvlar. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804 1187-1193

5. Abdugodirov A.A. Axborot texnologiyalari va masofali o'qitish. –T.: Iste'dod, 2006. B. 64.

6. Abdullaeva Sh.A., Axatova D. A., Sobirov B.B. Pedagogika. Ekspress-ma'lumot-noma –T.: Fan, 2004. – 79 s.

**Bosh muharrir:**

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Mas'ul kotib:**

Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

**Bosh dizayner – badiiy muharrir:**

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**TAHRIR HAY'ATI:**

Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV,  
G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA,  
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,  
Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV,  
Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV,  
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,  
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
E-mail: [xalq\\_talimi@xtv.uz](mailto:xalq_talimi@xtv.uz) Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52  
[t.me/xalq\\_talimi\\_jurnali](https://t.me/xalq_talimi_jurnali). [http://t.me/xalq\\_talimi\\_jurnali](http://t.me/xalq_talimi_jurnali).

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'lifi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagи 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"TAFAKKUR NASHRIYOTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: \_\_\_\_-\_\_\_\_-\_\_\_\_-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.  
Shartli b.t. 12,0. Adadi \_\_\_\_ nusxa. – buyurtma.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Abduqodirova Shohida Akmalxo'ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar <https://rustxt.ru/antiplagiat> sayti hamda [https://t.me/check\\_antiplagiat\\_bot](https://t.me/check_antiplagiat_bot) da monitoring qilinadi.

© "Xalq ta'lifi" jurnalı, 2023.